

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2026-yil 2-iyul № 12 (1574)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

KENGASHIB OLDILAR

Barqaror rivojlanishga, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

2 ➔

YUKSAK IBRAT NAMUNASI

Anvar Toshpo'latov malakali metallurg, iymon-e'tiqodini har qanday mansab, imtiyozlardan ustun qo'ygan inson sifatida xotirlanadi.

3 ➔

TAMAL TOSHI

Inson har bir ishni faqat pul uchun qilsa, uning hayotida baraka ham, ma'no ham kamayadi. Pul insonga kerak, lekin u yagona maqsad emas.

4 ➔

“O'ZMETKOMBINAT”: SIFATLI VA ISHONCHLI MAHSULOTLAR

JIDDIY XAVOTIR UYG'OTMOQDA

O'zbekistonda qurilish sur'atlari ortib borayotgan bir paytda qurilish materiallari sifati masalasi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, mamlakat bozoriga kirib kelayotgan arzon import metall mahsulotlari bilan bog'liq holatlar mutaxassislar va mas'ul idoralarda jiddiy xavotir uyg'otmoqda.

Yaqinda “UzTest” sinov laboratoriyasida “O'zstandart” agentligi va Prezident Administratsiyasi mas'ullari ishtirokida import qilingan armatura mahsulotlari bo'yicha o'tkazilgan tekshiruvlar bir qator jiddiy kamchiliklarni ko'rsatdi.

Sinov jarayonlarida ayrim import armaturalari belgilangan texnik talablarga javob bermagan, hatto yuklama ta'sirida sinib ketgan holatlar qayd etildi.

NEGA NARXI PAST?

- Qurilishda ishlatiladigan har bir tonna armatura yuzlab insonlar xavfsizligi bilan bevosita bog'liq. Standartlarga javob bermaydigan mahsulotlar qisqa muddatli iqtisodiy manfaat berishi mumkin, ammo uzoq muddatda xavf va zararni bir necha barobar oshiradi, – deydi soha mutaxassislari.

Eng tashvishli jihatlardan biri – shunday mahsulotlarning ayrim qurilish obyektlarida qo'llanilayotganidir. Bu esa binolarning xizmat muddati, seysmik barqarorligi va umumiy mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bozor tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim davlatlarda xomashyo narxlarining nisbatan arzonligi mahsulot qiymatiga ta'sir ko'rsatadi. Biroq mahsulot narxining pastligiga ta'sir qiluvchi yana bir muhim omil bor. Ayrim ishlab chiqaruvchilar tannarxni qisqartirish

maqsadida prokat sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi ferroqotishmalarni to'liq qo'llamaydi. Natijada mahsulot arzonlashadi, ammo uning texnik va ekspluatatsion xususiyatlari ham pasayadi.

SIFAT - XARAJAT EMAS, INVESTITSIYA

Bugungi kunda “O'zmetkombinat” AJning metalloprokat mahsulotlari davlat standartlari va texnik reglamentlar talablari asosida ishlab chiqarilmoqda.

Korxonada mahsulot sifati bir nechta bosqichda nazorat qilinib, xomashyodan tortib tayyor mahsulotgacha bo'lgan barcha jarayonlar qat'iy monitoring qilinadi. Zarur ferroqotishmalar va texnologik komponentlarning to'liq qo'llanilishi esa mahsulotning yuqori mustahkamligi va ishonchligini ta'minlaydi. Shu bois mahalliy mahsulot tannarxi ayrim import mahsulotlariga nisbatan yuqoriroq shakllanishi



tabiiy hisoblanadi.

Korxona tomonidan bozor talablarini hisobga olgan holda mahsulot tannarxini qisqartirish bo'yicha ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, navli prokat mahsulotlarining to'liq tannarxi 2025-yil yanvar-avgust oylaridagi 8 million 819 ming so'mdan 2025-yil sentabr – 2026-yil aprel davrida 7 million 240 ming so'mgacha tushirildi. Bu qariyb 17,9 foizlik kamayishni anglatadi.

Sifat xarajat emas, investitsiya. Ayniqsa, qurilish sohasida uning haqiqiy bahosi yillar o'tib namoyon bo'ladi. Mustahkam qurilish esa “O'zmetkombinat” AJda ishlab chiqarilgan sifatli metallardan boshlanadi.

Diyor ZULFIQOROV.

Barchamizga ma'lumki, davlatimiz rahbari tomonidan tasdiqlangan 2026-yil 22-iyunda “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-1155-son Qonuni imzolandi.

KORRUPSIYAGA QARSHI
MUROSASIZ KURASHAMIZ!

KOMBINAT BARQAROR RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI

Qonun bilan “korrupsiyaga oid jinoyatlar” tushunchasiga ta'rif berilib, unga 18 turdagi jinoyat kiritildi hamda korrupsiya uchun javobgarlik va jazo choralari kuchaytirilmoqda.

Shuningdek, o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish, fribgarlik uchun takroran hukm qilingan va yetkazilgan zararning o'rnini to'liq qoplamagan, shuningdek, takroran yoki xavfli retsidivist bo'la turib yoxud juda ko'p miqdorda pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilish jinoyatlarini sodir etgan shaxslarga nisbatan jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qoidalari qo'llanilmasligi belgilandi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda esa davlat xaridlarida xarid predmetining boshlang'ich narxini shakllantirish tartibini buzish, shuningdek, boshlang'ich narx hamda o'rtacha bozor narxi o'rtasida yo'l qo'yiladigan tafovutning eng ko'p miqdorini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik choralari belgilandi.

(Davomi 3-sahifada).



AKSIYADORLARNING YILLIK UMUMIY YIG'ILISHI BO'LIB O'TDI MUHIM QARORLAR QABUL QILINDI

“O'zmetkombinat” AJ aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda jamiyatning 2025-yildagi faoliyati yakunlari sarhisob qilinib, korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirish, kelgusi davrda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar muhokama etildi.

Yig'ilish avvalida aksiyadorlar tomonidan yig'ilish reglamenti va sanoq komissiyasi tarkibi tasdiqlandi. Shundan so'ng jamiyat Ijroiya organi hamda Kuzatuv kengashining 2025-yil yakunlari bo'yicha hisobotlari tinglandi.

Shuningdek, biznes-reja ijrosi, moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari, tashqi auditor xulosasi hamda jamiyatning yillik hisoboti atroflicha muhokama qilinib, ular bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilindi.

Yig'ilish kun tartibidan korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari, 2025-yil yakunlari bo'yicha olingan foyda va

zararlarni taqsimlash, dividendlar to'lash, jamiyatning joriy xo'jalik faoliyatiga oid bitimlar ro'yxatini tasdiqlash kabi muhim masalalar ham o'rin oldi. Shuningdek, affillangan shaxslar bilan kelgusida tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlarni ma'qullash yuzasidan ham aksiyadorlar tomonidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

Yillik umumiy yig'ilishda qabul qilingan qarorlar “O'zmetkombinat” AJning barqaror rivojlanishi, korporativ boshqaruv samaradorligini yanada oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda aksiyadorlar manfaatlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Bekjon YUSUPOV.



**2-IYUL - DAVLAT GERBI
QABUL QILINGAN KUN**

MILLIY G'URUR VA BIRLIK TIMSOLI

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi qabul qilinganiga 34 yil to'ldi. Davlatimiz mustaqilligi va suverenitetining muhim ramzlaridan biri bo'lgan gerb 1992-yil 2-iyul kuni qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida”gi Qonun bilan tasdiqlangan.

Ushbu sana munosabati bilan mamlakatimiz bo'ylab ma'naviy tadbirlar, ta'lim muassasalarida ochiq darslar, vatanparvarlik ruhida uchrashuvlar hamda ko'rgazmalar tashkil etilmoqda. Bu tadbirlar yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlar va davlat ramzlariga hurmat tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi chuqur ma'no va mazmunga ega ramzlar majmuasidan tashkil topgan. Gerbda gullagan vodiy uzra charaqlab turgan quyosh mamlakatimiz taraqqiyoti va porloq kelajagini ifodalaydi. Uning chap tomonida bug'doy boshloqlari, o'ng tomonida esa ochilgan paxta chanog'i tasvirlangan bo'lib, ular xalqimiz mehnatsevarligi va farovonlik timsolidir.

Gerbning yuqori qismida joylashgan sakkiz qirrali yulduz respublika jipsligi va yakdilligini anglatadi. Yulduz ichidagi yarim oy va yulduz esa xalqimizning ma'naviy qadriyatlari hamda muqaddas an'alarini o'zida mujassam etgan. Markazda qanotlarini keng yozgan afsonaviy Humo qushi tasvirlangan bo'lib, u baxt, ozodlik, himmat, olijanoblik va fidoyilik ramzidir.

Gerbning pastki qismida Davlat bayrog'i ranglaridagi lentada “O'zbekiston” degan yozuv aks etgan. Bu esa yurtimiz mustaqilligi, yagona maqsad va ezgu orzular yo'lida birlashgan xalqimizning ifodasidir.

Davlat ramzlari – bayroq, gerb va madhiya xalqimizning boy tarixi, milliy g'ururi, or-nomusi va kelajakka bo'lgan ishonchini mujassam etadi. Ularni e'zozlash har bir fuqaroning muqaddas burchi hisoblanadi. Zero, davlat ramzlariga hurmat Vatanga muhabbat, mustaqillikni qadrlash va uni asrab-avaylashning muhim ifodasidir. Davlat gerbi hamisha yurtimiz tinchligi, taraqqiyoti va xalqimiz birligining yorqin timsoli bo'lib qolaveradi.

Diyora AHMEDOVA.

ZEHN VA BILIM SINOVI

YOSHLAR "ZAKOVAT"DA KUCH SINASHDI



30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan “O'zmetkombinat” AJda yoshlarning intellektual salohiyati, bilim va zakovatini namoyon etishga qaratilgan tadbir tashkil etildi. “Baxt uyi” to'yxonasida o'tkazilgan “Zakovat” intellektual musobaqasida korxonaning turli tarkibiy bo'linmalaridan shakllangan 35 yoshgacha bo'lgan bilimdon va faol jamoalar o'zaro kuch sinashdi.

Intellektual bellashuvning asosiy maqsadi yoshlarning bilim va tafakkurini yuksaltirish, ularning jamoaviy hamjihatligini mustahkamlash, erkin va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat bo'ldi. Qizg'in va murosasiz kechgan bahslar, mantiqiy savollar hamda tezkor fikrlashni talab etgan topshiriqlar ishtirokchilarning bilim saviyasi, tahliliy yondashuvi va jamoada ishlash mahoratini yana bir bor namoyon qildi.

Tadbirda “O'zmetkombinat” AJ Boshqaruv raisi – Bosh direktor Bahodir Abdullayev ishtirok etib, yoshlarni bayram bilan samimiy muborakbod etdi. U o'z tabrigida korxona taraqqiyotida yoshlarning o'rni va salohiyati beqiyos ekanini ta'kidlab, ularni doimiy izlanish, bilim va tajribalarini boyitish, innovatsion g'oyalarni ilgari surishga hamda yurt va korxona ravnaqi yo'lida sidqidildan mehnat qilishga chaqirdi.



bo'ldi. Ikkinchi o'rinni Quyuv-prokatlash majmuasi 1-jamoasi egallab, 6 million so'm bilan taqdirlandi. Mahsulot sifati va standartlarga rioya etilishi nazorati xizmati jamoasi esa uchinchi o'rinni qo'lga kiritib, 4 million so'mlik mukofotga munosib ko'rildi.

Bu kabi bellashuvlar yoshlarda ilm-fanga qiziqishni oshirish, sog'lom raqobat va jamoaviy hamjihatlik muhitini mustahkamlash, kelajakda yetuk mutaxassislarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bahodir RAHMONQULOV.

KOMBINAT BARQAROR RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Mazkur kuchaytirilgan choralar davlat xaridlarini ochiq, shaffof va raqobatli usullarda o'tkazilishini ta'minlash bilan bir qatorda, korxona mablag'larini samarasiz sarflanishi oldini olishga ham xizmat qiladi.

Metallurgiya kombinatida ham mazkur qonun talablarini hayotga tatbiq etish, ishlab chiqarish jarayonlarida halollik, ochiqlik va qonuniylik tamoyillarini mustahkamlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Qonunning eng muhim yangiliklaridan biri korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning elektron reestri joriy etilishidir. Ushbu reestrda kiritilgan shaxslarga davlat xizmatiga kirish, saylanadigan, tayinlanadigan lavozimlarga nomzodini ko'rsatish, davlat xaridlari va DXSH bitimlarida ishtirokchi sifatida qatnashish taqiqlanishi kabi qator cheklovlar tatbiq etiladi.

Qonun bilan komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining vazifalari va huquqlari, shuningdek, xavfsizlik kafolatlari mustahkamlandi. Unga ko'ra, komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari davlat himoyasida bo'ladi, ularga nisbatan tergov va protsessual harakatlar Bosh prokurorning ruxsati bilan yoki

uni xabardor etgan holda amalga oshiriladi. Komplayens xizmati faqat huquqbuzarliklarni aniqlash emas, balki korrupsiyaviy xavflarni barvaqt baholash, ularning sabablarini bartaraf etish va profilaktik choralarni amalga oshirishga ham mas'ul hisoblanadi.

Qonunning e'tiborga molik yangiliklaridan yana biri korrupsiya haqida vijdonan xabar bergan xodimlarning huquqiy himoyasini kuchaytirishga qaratilganidir. Yangi tartibga ko'ra, o'z mehnat faoliyatini olib borayotgan tashkilotda korrupsiyaga oid jinoyat to'g'risida xabar bergan shaxslarga nisbatan Agentlikni xabardor qilmasdan 2 yil davomida intizomiy jazo qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

Ushbu norma halol va faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etayotgan xodimlarning huquqiy himoyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Eng muhimi, korrupsiya holatlarini yashirish emas, aksincha ular haqida o'z vaqtida xabar berishga qulay va ishonchli muhit yaratiladi. Bu esa jamoada adolat, ochiqlik va qonuniylik tamoyillarini mustahkamlashga, korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi.

Korrupsiya mamlakat ravnaqini barbod qiladi!



Korrupsiyaga qarshi kurashish bu nafaqat nazorat organlarining vazifasi, balki har bir rahbar va har bir xodimning mas'uliyatidir. Halol mehnat, ochiqlik va adolat tamoyillariga amal qilish kombinatimizning nufuzini mustahkamlaydi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarga munosib hissa qo'shadi.

Muhammadali ASROROV,
"O'zmetkombinat" AJ Kuzatuv kengashi
huzuridagi Komplayens xizmati rahbari.

TAJRIBALI METALLURG, MUSTAHKAM E'TIQOD SOHIBI

Bugungi kunda mamlakatimiz sanoati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan fidoyi insonlar hayoti va mehnat yo'li yosh avlod uchun haqiqiy ibrat maktabi hisoblanadi. Ana shunday insonlardan biri – ko'p yillar O'zbekiston metallurgiya zavodida samarali mehnat qilgan tajribali metallurg Anvar Toshpo'latovdir.

Anvar Toshpo'latov 1926-yil 1-yanvar kuni Toshkent shahrida tavallud topgan. Uning o'smirlik yillari Ikkinchi jahon urushi davriga to'g'ri keldi. Og'ir va mashaqqatli yillarda u 16 yoshidayoq oilasiga yordam berish maqsadida "Toshprom" deposida elektrik yordamchisi sifatida mehnat faoliyatini boshladi.

TASODIFIY UCHRASHUV

Uning Bekobodga kelishi va keyingi butun taqdirining metallurgiya sohasi bilan bog'lanishi tasodifiy bir uchrashuvdan boshlangan. Urush yillarida mahalladagi ko'plab yoshlar frontga jo'nab ketgan, ko'chalar bo'shab qolgan edi. Vatanga xizmat qilish ishtiyoqidagi Anvar harbiy komissarlikka murojaat qilgan bo'lsa-da, yoshi kichikligi sababli armiya safiga qabul qilinmaydi.

Shu kunlarning birida u qo'shni mahallada yashovchi Hofiz G'aniyev (keyinchalik nomdor po'lat erituvchi, 1958-yil Mehnat Qahramoni bo'lgan) bilan uchrashadi. Hofiz unga Bekobodda metallurgiya zavodi qurilayotgani va bu qurilish mamlakat uchun ikkinchi front

ULAR BIZNING FAXRIMIZ

sifatida baholanayotganini aytadi. Bu xabar yosh Anvarning hayotida yangi sahifa ochadi. U tengdoshlari bilan Bekobodga yo'l oladi.

Bekobodga yetib kelgan yigitlar qurilish ishlarini ko'rib hayratda qolishadi. Biroq ularni qurilishga emas, Uralga o'qishga yuborishadi. U yerda bo'lajak metallurglar po'lat eritish sirlarini puxta o'zlashtirib, sakkiz oylik ta'limdan so'ng Bekobodga qaytishadi.

ILK PO'LAT

1944-yil 5-mart sanasi Bekobod metallurgiya zavodi tarixida unutilmas kun bo'lib qoldi. O'sha kuni Marten sexining birinchi pechi ishga tushirilib, ilk po'lat eritmasi olindi. Birinchi o'zbek po'lati tayyorlanishida Anvar Toshpo'latov ham ishtirok etdi.

Anvar Toshpo'latov keyingi o'n yilliklar davomida korxonaning eng tajribali mutaxassislaridan biriga aylandi. U metall sifati va tayyorligini bir qarashda aniqlay oladigan mahoratli metallurg sifatida tanildi. Uning ish tajribasi hatto Qarag'anda metallurgiya kombinati mutaxassislari tomonidan ham o'rganildi.

Marten sexida mehnat qilgan yillari davomida u yuqori ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga erishibgina qolmay, bir qator ratsionalizatorlik takliflari va ixtirolarni ham amaliyotga joriy etdi. Jumladan,

metall quyish jarayonini bir soatga tezlashtirish imkonini bergan texnologiyani ishlab chiqdi.

MUNOSIB E'TIROF

Ko'p yillik halol va samarali mehnati davlat tomonidan munosib taqdirlandi. U 1946-yilda "Fidokorona mehnati uchun", 1954-yilda "Mehnatda ko'rsatgan jasorati uchun" medallari, 1958-yilda "Hurmat belgisi" ordeni, 1967-yilda "Faxriy metallurg" nishoni va 1971-yilda Lenin ordeni bilan mukofotlandi. Shuningdek, "Sotsialistik musobaqa g'olibi" ko'krak nishoni hamda bir qator yubiley medallari sohibi bo'ldi.

Anvar Toshpo'latov jamoat ishlarida ham faol ishtirok etdi. U 2-chaqiriqdan 12-chaqiriqqacha Toshkent viloyati va Bekobod shahar Kengashlariga deputat etib saylanib, xalq ishonchini qozongan inson sifatida tanildi.

MUSTAHKAM E'TIQOD

Anvar Toshpo'latov juda hazilkash, ishonuvchan, halol inson bo'lgan. Uning hayotidagi eng ibratli jihatlardan biri mustahkam e'tiqodi edi. Sobiq ittifoq davrida dindorlikka nisbatan turli cheklovlar mavjud bo'lishiga qaramay, u namozini va masjidga qatnashini tark etmadi. O'sha davrda zavod partiya tashkilotida mas'ul vazifada ishlagan yaqin tanishim aytib bergan edi. Unga mamlakatning eng yuqori Mehnat Qahramoni unvonini berish masalasi ko'rilganida, diniy amallardan voz kechish sharti qo'yilgan ekan.

Anvar Toshpo'latov bu taklifni qabul qilmagan. U imyon-e'tiqodini har qanday mansab va imtiyozlardan ustun qo'ygan inson sifatida xotirlanadi.

Qariyb 30 yildan ortiq vaqt davomida po'lat erituvchi bo'lib mehnat qilgan Anvar Toshpo'latov 1976-yilda pensiyaga chiqqan. Agar hayot bo'lganida, bu yil u kishi 100 yoshni qarshi olgan bo'lar edi.

Uning sharaflari mehnat yo'li, Vatan taraqqiyoti yo'lidagi xizmatlari va mustahkam e'tiqodi bugungi yoshlar uchun ham yuksak ibrat namunasi bo'lib qolaveradi.

Ismadiyor MAMATQULOV.
Suratda: Anvar Toshpo'latov (o'rtada).



IBRAT OLGANGA IBRATDIR DUNYO

Katta qurilish maydonida qad rostlayotgan ulkan inshootlardan biri yonida bir kekxa kishi to'xtab, tosh yo'nuvchilarning mehnatini kuzata boshladi. U bir muddat ularning ishini diqqat bilan tomosha qildi. Keyin esa sekingina ishchilar safiga qo'shilib, ularga yordam bera boshladi.

Otaxonning har bir harakatidan uning bu kasbning haqiqiy ustasi ekani yaqqol sezilib turardi. U hech kimning iltimosini kutmay, yoshlarga tosh yo'nishning nozik sirlari va yillar davomida orttirgan tajribasini o'rgatardi. Moddiy manfaat ko'zlamasdan, o'z bilimi va mahorati bilan qurilishga hissa qo'shardi.

Bu holat yosh quruvchilarni hayratga soldi.

– Otaxon, – dedi ulardan biri, – nega hech qanday haq talab qilmay, bu qadar mehnat qilyapsiz?

Kekxa usta qo'lidagi toshni ehtiyotkorlik bilan joyiga qo'ydi va ma'noli tabassum qildi.

– Bolam, inson har bir ishni faqat pul uchun qilsa, uning hayotida baraka ham, ma'no ham kamayadi.

METALLURGLAR IJODIDAN

TAMAL TOSHI



Pul insonga kerak, lekin hayotning yagona maqsadi emas. Agar har kim faqat "Menga qancha foyda bo'ladi?" degan savol bilan yashasa, unda xalq uchun qurilayotgan bino-inshootlar, yo'llar sifatsiz

bo'ladi, kelajakka qo'yilayotgan poydevorda darz paydo bo'ladi. Ba'zi ishlar borki, ularning haqiqiy mukofoti pul emas, balki xalqning duosi va kelajak avlodning baxtidir.

Yigit chuqur o'yga toldi.

– Demak, siz ham kelajak uchun mehnat qilyapsizmi?

– Albatta, – dedi usta. – Bu binodan mendan ko'ra farzandlarimiz, nabiralарimiz va kelajak avlodlar ko'proq bahramand bo'ladi. Muhimi – inshoot mustahkam bo'lsin, odamlarga uzoq yillar xizmat qilsin.

Usta nigohini uzoqlarga qadab, so'zini davom ettirdi:

– Mustaqil O'zbekistonning buyuk kelajagiga aynan bugungi mehnatimiz, bilimimiz bilan tamal toshi qo'yilmoqda. Shuning uchun har birimiz faqat shaxsiy manfaatni o'ylab qolmasdan, Vatanimiz va kelajak avlod taqdirini ham yodda tutishimiz zarur. Chunki faqat foyda ketidan quvish insonni ham, jamiyatni ham yuksaltira olmaydi.

Diyor ZULFIQOROV.

QAROR

Bir zavodda yangi rahbar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga qaror qildi.

– Eski usullar yaxshi ishlayapti, rejalar bajarilyapti, o'zgartirmang, – dedi bir guruh mutaxassislar.



Rahbar to'xtadi.

– Nega yangilanmayapsizlar? Shu tariqa raqobatda yutqazasizlar, – dedi boshqalar.

U texnologik yangilanishlarni tezlashtirdi.

– Juda tez o'zgartirayapsiz, odamlar ulgurmaydi, – degan tanqidlar ham paydo bo'ldi.

Shunda tajribali mutaxassis unga shunday dedi:

– Har kimning maslahatiga qarab pechda haroratni o'zgartirsak, sifatli po'lat chiqmaydi. Qaror ham shunday: hammani eshiting, lekin o'zingiz maqsad qilgan va ishongan qarorni qabul qiling.

Rahbar shu maslahatga amal qildi va zavod natijalari yaxshilandi.

Xulosa: Metallurgiyada sifatli va mustahkam po'lat barqaror jarayonda tayyorlanadi. To'g'ri qarorlar ham har kimning fikriga emas, aniq maqsad va ishonchga tayanib qabul qilinadi.

Ismat DIYOROV.

XALQ TABOBATIDAN

* Pishgan shaftoli yeyilsa, har qanday ichni yumshatadi.

* Shirasi oqib turgan anjirdan yeyilsa turli kasalliklarga shifo bo'ladi.

* Anjirning xomini, shuningdek, bargini hol, so'gal va dog'larga qo'yilsa foydalidir.

* Tutqanoq dardi bor insonlar har yili anjirdan to'yib yesalar, qishda esa qoqisidan totib tursalar tutqanoq kasaliga shifo bo'ladi.

* Isiriq damlamasi tomoq og'riganda tez-tez g'ar-g'ara qilinsa

tomoq og'rig'ini bosadi.

* Sigirning sutini ko'zga surtsangiz, ko'zning har xil illatlarini bartaraf qiladi.

* Sog'ilgan sutni issiq holatda ichilsa, yurakka quvvat beradi, g'amni, vasvasani, silni va xafaqon kasalligini, turli ichki yaralarni daf qiladi, darmonni oshirib, rang-u ruxsorni ochadi.

* Uzun – qonni ko'paytiradi, ichni yumshatadi, ishtahani ochadi, asablarni tinchlantiradi.

To'plovchi Aziz ALIMOV.

XANDALAR

Xotin eriga dedi:

– *Ishonasizmi, avtobusda bir emas, ikkita erkak menga joy bo'shatdi-ya!*

– *Sig'dingmi ishqilib?*

Shifokor kelgan huzuriga bemordan so'radi:

– *Aroq ichasizmi?*

– *Rahmat, doktor.*

Hozir to'g'ri restorandan kelyapman, to'yib ichganman.

DONISHMANDLAR
DEYDIKI...

Insonni mansab buzmaydi, uni shu mansabni yo'qotib qo'yish qo'rquvi buzadi.

Lev TOLSTOY.

Aqlli odam balki fikrini o'zgartirishi mumkin, ahmoq odam hamisha o'z fikrida qoladi.

Immanuil KANT.

BILIB OLING!

Telefonni quvvatlash moslamasiga ulashning to'g'ri tartibini bilasizmi?

Ishlab chiqaruvchilar tavsiya qiladigan amaliyot – quvvatlash qurilmasini telefonga ulashdan oldin uni rozetkaga ulashdir. Bu yondashuv zaryadlovchi qurilmaga doimiy elektr oqimini ta'minlaydi, qurilmaga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday potensial kuchlanish sakrashlarining oldini oladi.

Farq juda kichik, ammo uzoq muddatli istiqbolda sezilarli bo'ladi. Bu telefonning uzoqroq xizmat qilishiga yordam beradi.

Shuningdek, telefonni doimiy ravishda 100 foizgacha quvvatlantirishdan saqlanish tavsiya etiladi, chunki litiy batareyalari 20 foizdan 80 foizgacha quvvatlanganida eng yaxshi ishlaydi.

Telefon qizib ketishining oldini olish uchun quvvat olgandan so'ng darhol quvvatlagichni o'chirish muhim.